

DUDUQLANISH KASALLIGINING KELIB CHIQISH SABABLARI VA UNING TURLARI

Soliyev Ilhomjon Sobirovich, Ph.D

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori

Akbarova Muxlisa Ahmadali qizi

Farg'onada davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lif fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada duduqlanish kasalligining kelib chiqish sabablari va alomatlari, asoratlari, uning turlari va davolash usullari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: logonevroz, nutq apparati, anatomo-fiziologik sabablar, sotsial sabablar, nolinchidaraja;

Aksariyat insonlarni logonevroz qanday kasallik degan savol qiynaydi. Bu nom duduqlanish kasalligining ilmiy nomi hisoblanadi. Duduqlanish - tutilib gapirish, nutq maromining buzilishi, harf va bo'g'irlarni tutilib-tutilib yoki bir necha marta qaytarib talaffuz qilish. Bu ko'proq bolalarda uchraydi. Buning kelib chiqishiga tug'ma irsiy omillar (alkogolizm, giyohvandlik) ko'pincha qo'rqish va homiladorlik davridagi zararli moddalar ta'siri, ba'zan go'daklikda endi nutq shakllanayotganda ruhiy kasalliklar bilan og'rish, bosh miya shikastlari, oila a'zolarining tez gapirishi va oiladagi ikki tillilik sabab bo'lishi mumkin. Bola duduqlanganda unda nafas bo'g'ilishi va ovoz chiqarish buzilishi kabi holatlar kuzatiladi. Bunday nuqsoni bor bolalar so'zni maromida talaffuz etolmaganliklari sababli unlilarni qattiq tarzda gapirishga harakat qilishadi. Shivirlab gapirganda va kuylaganda duduqlanish alomatlari yumshashi kuzatiladi. Tez-tez duduqlanuvchi bola nutq so'zlayotganda qiynalib gapirishi sababli o'sha qiynalayotgan so'zlaridan tobora kamroq foydalanishga harakat qiladi. So'zlarni kam ishlatganligi sababli uning so'z boyligi ham kamayib boradi.

Duduqlanish- bu nutq apparati muskullarining tortishishi natijasida nutq sur'at ohangining buzilishidir. Bunga sabablar hozirgi vaqtida 2 guruhga bo'linadi:

1. Moyillik sabablari
2. Keltirib chiqaruvchi sabablar

Moyillik sabablariga quyidagilar kiradi

- Ota-onalarning nevropatik kasallanishi
- Duduqlanuvchining o'zidagi nevropatik xususiyatlar
- Nasliy buzilish
- Bosh miyaning turli davrlardagi rivojlanishida ko'plab salbiy omillar ta'sirida shikastlanishi

Keltirib chiqaruvchi sabablar o'z navbatida ikkiga bo'linadi:

1. Anatomo-fiziologgi sabablar: ensefamitik oqibatlari bo'lgan jismoniy kasalliklar, jarohatlar, miyaning organik buzilishi, markaziy nutq apparatini zaiflashtiruvchi kasalliklar natijasida nerv sistemasining izdan chiqishi yoki o'ta charchash, qizamiq, terlama, gjijalar, burun, halqum,



hiqildoq kasalliklari, dislaliya, dizartriya va tovush talaffuz apparatining mukammal rivojlanmaganligi.

2. Ruhiy va sotsial sabablar: qisqa muddatli ruhiy shikast, uzoq vaqtli ruhiy shikast, surunkali ziddiyatl kechimmlar, o'ta shodlanish holati, nutqning bolalikda noto'g'ri shakllanishi kabi holatlar sabab bo'ladi.

Hozirgi davrda duduqlanishning alomatlari bir-biriga yaqin bo'lgan 2 guruhga ajratiladi.

- biologik (fiziologik)
- sotsial (psixologik)
- Fiziologik alomatlarga ko'ra nutqning hosil bo'lishida ishtirok etuvchi a'zolarning tutilishi, markaziy nerv sistemasi va nutq harakatlarining buzilishi kiradi.
- Psixik alomatlariغا nutqda tutilish va his-hayajon hamda logofobiya va boshqa jihatlar kiradi.
- Duduqlanishning 3 ta darajasi bor:
 - Kasallikning nolinchi darajasi: bolalar go'yo o'z nuqsonini sezmagandek bo'ladi, u haqida o'ylamaydi va tashvishlanmaydi. Nuqsonni bartaraf etish uchun harakat qilmaydi.
 - Mo'tadil daraja: yuqori sinf o'quvchilari va o'smirlar o'z nuqsonidan tashvishlanadilar va undan uyaladilar, duduqlanishni yashiradilar hamda atrofdagilar bilan kamroq munosabatda bo'lishga urinadilar.
 - Yaqqol ifodalangan darajasi: duduqlanuvchi bolalar nuqsoni borasida tashvishlanadilar. Ular bor diqqatini nuqsoniga qaratadilar va bu haqida ko'p o'ylashi natijasida ruhiy tushkunlikka tushadilar.
 - Logonevroz qaytalanish davriga qarab turlarga bo'linadi:
 - Doimiy duduqlanish: har doim qaytarilib turadi, har bir gapida bola tutilib gapiradi.
 - To'lqinsimon duduqlanish-gohida bu nuqson kamayadi, gohida kuchayadi, lekin butunlay yo'qolib ketmaydi.
 - Qaytalanuvchi duduqlanish: yo'qolib yana bir necha kun, hafta, oy, yillarda qayta takrorlanadi.

Duduqlanish vaqtida bolalar ko'zlarini pirpiratishi, qiyshayishi, yuzlarini burishtirishi yoki mushtini siqishi kabi holatlar kuzatiladi. Bolalarda duduqlanish ko'pincha maktabgacha yoshda, odatda 2-4 yoshda boshlanadi. Bunday bolalar uchun maxsus dori vositalari mavjud bo'lmasada, ularning nuqsonlarini ba'zi dorilar va mashqlar yordamida davolash mumkin.

- Kitoblarni ovoz chiqarib o'qish
- Nafas mashqlarini bajarish
- Sharlarni puflash
- Hayvonlar tovushiga taqlid qilish
- Kuniga 8 soatdan kam uxlamaslik
- Shifokorlar maslahat bergen asab tizimiga ijobiy ta'sir qiluvchi dorilarni qabul qilish
- Suvda suzish mashqlarini bajarish



Duduqlanish ko‘proq erkaklarda uchraydi. Ayollarning bosh miyasi nutq buzilishlaridan tabiatan himoyalangan bo‘lar ekan.

Duduqlanishga sababchi omillar

- tomoqning tez-tez yallig‘lanishi (tonzillit, angina)
- organizmda gjijalar ko‘payishi
- kurash hamda boks bilan shug‘ullanuvchilarda bosh miyaning ko‘p jarohatlanishi
- insult oqibatida

Logonevroz bo‘lgan bolalar bilan nevropotolog, defektolog, psixolog birga ish olib borishi zarur. Agar nuqson vaqtida bartaraf etilmasa yanada zo‘rayib borishi mumkin.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. Maxsus pedagogikaning klinik asoslari
2. Belyakova.Duduqlanish.
3. Soliyev I., Akbarova M. INSON HAYOTIDA ESHITISHNING AHAMIYATI VA KARLIKNING TURLARI HAQIDA TUSHUNCHА //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2023. – T. 3. – №. 2. – C. 25-27.
4. Soliyev I. S., qizi Ergasheva D. S. BOSHLANG ‘ICH TA’LIM FANLARINI O ‘QITILISH JARAYONIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ME’ROSIDAN UNUMLI FOYDALANISH //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 16-20.
5. Ergasheva D. BARKAMOL AVLODNI MA’NAVIY YETUK QILIB TARBIYALASHDA BOSHLANG ‘ICH TA’LIMNING O ‘RNI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B4. – C. 139-141.
6. Ergasheva D. BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARIDA TO ‘G ‘RI O ‘QISH KO ‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B8. – C. 1675-1678.
7. Sobirjonovich S. I. EASTERN THINKERS'VIEWS ON EVERYWHERE EDUCATION OF CHILDREN //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 309-314.
8. avitsenna.uz
9. madreshoy.com
10. darakchi.uz